OCTOBER 23, 2023 BUXORO INNOVATSION TIBBIYOT INSTITUTI VOL. 2

TIBBIYOT SIRLARI

The official newsletter of BITI

BUXORO INNOVATSION TIBBIYOT INSTITUTINING NASHRI

USHBU SONDA:

BITI YANGI BINODA YANGI ORZULAR SARI
GIPPOKRAT QASAMYODI SHIFOKOR QANOTI
FOTOREPORTAJ: FADIL TRIXOLOGIYA MARKAZI: KECHA VA BUGUN
KELAJAK INSTITUTLARI QANDAY BO'LISHI KERAK?
NEGA HAMMA HAM HAYOTDA YAXSHI NATIJALARGA ERISHA OLMAYDI
MINI FUTBOL BO'YICHA REKTOR KUBOGI
"MEN DONORMAN" AKSIYASI
YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI KELAJAGIMIZ POYDEVORI
"TABIB" SHE'RI TO'LIQ MANTDA

BITI-YANGI BINODA YANGI ORZULAR SARI

Buxoro shahrida 2023-yilning 30-sentabr kunida Buxoro innovatsion tibbiyot institutining "Ochilish marosimi" hamda 2023-2024-o`quv yilida qabul qilingan talabalarning qasamyod marosimlari ko`tarinki ruhda tashkil qilindi. Tadbirda Olimov Siddiq Sharipovich-Buxoro Davlat tibbiyot instituti "Ortopedik stomologiya va ortopediya" kafedrasi mudiri, Sevinchov Ne'mat Gulboyevich-Buxoro viloyati Bilimlarni baholash markazi rahbari, K.V.Prudnikov-Sankt-Peterburg yurak qon-tomir kasalliklari xirurgi, Ismatova Ra'no Ahadovna - Buxoro davlat tibbiyot instituti akademik litseyi direktori, ota-onalar va talabalar ishtirok etishdi.

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti rektori M.M.Amonova tadbirni ochib, bugungi tadbirga tashrif buyurgan barcha mehmonlarga o`z minnatdorchiligini bildirdi.

Matluba Muxtarovna o'z so'zida, Davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan yosh avlodni jismonan va ruhan sog‘lom, vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni kelajagimizning munosib vorislari etib voyaga yetkazishga ko‘maklashishdan iborat ekan, bu borada yurtimizda ham muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yoshlarning bilim olishi va kasb tanlash borasidagi huquq va imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida oliy ta’lim muassalari, texnikumlar, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari, sport inshootlari zamon talablari darajasida bunyod etilib, yetarli shart-sharoitlar bilan to‘liq ta'minlanmoqda. Buxoro innovatsion tibbiyot instituti “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish to'g'risida”gi 2020-yil 6-noyabrdagi qabul qilingan 6108-sonli farmon ijrosini ta'minlash borasida zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarga asoslangan, nodavlat ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, aholi salomatligini muhofaza qilishning dolzarb muammolari yechimi yo'lida ta'lim va taraqqiyot ishlarini uyg'unlashtirib olib borish maqsadida institutda 2 ta: Davolash ishi va Stomatologiya yo'nalishi mavjudligini, institutga 406 nafar talaba qabul qilinganligi, o'quv jarayonida yangi texnologiyalar joriy qilinganligi, o'quv jarayoni bir vaqtning o`zida amaliyot bilan uzviy bog'liq ekanligi, ilm olish uchun barcha sharoit mavjudligi va yaratilganligi haqida fikr bildirdi.

Talabalar turar joyida ham barcha qulayliklar mavjud bo'lib, talabalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida kutubxona, kompyuter xonasi va ma'naviyat xonalari faoliyat olib bormoqda. Talabalar turar joyining har bir qavatida talabalar uchun oshxona, yuvinish xonasi va zamonaviy kir yuvish mashinasi bilan ta'minlangan xonalar mavjudligi haqida aytib o'tildi.

Shundan so'ng, Buxoro innovatsion tibbiyot instituti o'quv ishlari bo'yicha prorektori Shukurov Ilhom Boltayevich so'zga chiqib, 1-kursga qabul qilingan talabalarini va ularning ota-onalarini tabrikladi.

Prezidentimizning tibbiy ta'limni kompleks rivojlantirishga qaratilgan qarorlari-mamlakatimizda tibbiy ta'lim muassasalari kadrlari salohiyatini oshirishga, tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarining amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga, o'quv jarayonini samarali tashkil etish va pirovard natijada yuqori malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Buxoro Davlat tibbiyot instituti “Ortopedik stomologiya va ortopediya” kafedrasi mudiri Olimov Siddiq Sharipovich so'zga chiqib, bugun O'zbekiston ta'lim tizimida butunlay yangi sahifa ya'ni Buxoro shahrida ilk bor innovatsion

tibbiyot instituti ochilganligi haqida to'xtalib, ilk bor oliy ta'lim ostonasiga qadam qo'ygan talabalarni tabriklab, yangidan barpo etilgan ushbu o'quv binosi ularning bilim olishlari uchun muhim ahamiyatga ega ekanini aytib o'tdilar.

Sankt-Peterburg yurak qon-tomir kasalliklari xirurgi Konstantin Vladimirovich so'zga chiqib, institut rahbarlari, professor–o'qituvchilari va talabalarini Buxoro innovatsion tibbiyot institutining ochilish marosimi bilan tabriklab, BITI ta'sischisi talabalarga o'z munosib o'rnini topishida bor kuch va imkoniyatlarini to'la safarbar etayotganligi, talabalarni oq xalatlariga dog' tushurmaslikka, qunt bilan bilim egallashga, xalq salomatligi yo'lida chin dildan xizmat qilishga chaqirdi.

Ramziy lentalar kesilganidan so'ng, talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishildi. Kampus qurilishidagi zamonaviy ko'rinish, puxta o'ylangan arxitektura, go'zal tabiat manzarasi, o'quv jarayoni uchun yaratilgan qulayliklar - ta'lim sifati oshishiga xizmat qiladi. Institutning yangi o'quv binosida moddiy-texnik bazasi shakllantirilgan va zamonaviy jihozlar bilan jihozlanganligi barcha mehmonlarga ko'rsatib o'tildi.

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti rektori M.M.Amonova yangi oliy ta'lim muassasasi mintaqaviy hamkorlik istiqbollarini ekspertlar darajasida batafsil muhokama qilish, tibbiyot sohasida ko'p tomonlama loyihalar bo'yicha amaliy va ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish uchun imkoniyat yaratishiga ishonch bildirdi.

Tantanali ochilish marosimi nihoyasiga yetgandan so`ng, barcha I bosqich talabalari shifokorlikning birinchi qadamini qo`yish uchun Buxoro viloyati Peshko` tumani Afshona Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumida qasamyoq qabul qilish uchun jo`nab ketishdi.

Buxoro Innovatsion tibbiyot institutining matbuot xizmati BITI gazetaning 3-soni uchun maqolalar qabul qilishni boshladi.

“Gippokrat qasamyodi” shifokor qanoti

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti I bosqichiga qabul qilingan talaba yigit-qizlarning ishtirokida Buxoro viloyati Peshko` tumani Afshona qishlog'ida “Gippokrat qasamyodi” tadbiri bo'lib o'tdi. Ushbu an'anaviy marosimni, Buxoro innovatsion tibbiyot instituti rektori M.M.Amonova ochib, ta'lim muassasasining professor-o'qituvchilarini, I bosqichga qadam qo'ygan talabalarni, ularning ota-onalari, yaqinlari hamda mehmonlarni unutilmas va quvonchli kun bilan qizg'in muborakbod etdi. Davlatimiz madhiyasi sadolari ostidaboshlangan tadbirda, xalqimizning asriy orzusi bo'lgan mustaqillik tufayli mehnatkash, mard va saxovatli, bag'rikeng va oliyjanob xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar ochilganini ta'kidladi.

Shuningdek, tadbirda so'zga chiqqan Umurov Faxriddin Hotamovich mamlakatimiz yoshlarining sifatli ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi borasida amalga oshirilayotgan davlat siyosatining amaliy ifodasi sifatida shaffof o'tkazilgan test sinovlari natijasida talaba degan sharafli nomga sazovor bo'lgan birinchi kurs talabalarini samimiy tabrikladi.

Xalqaro standartlar talabi darajasida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun sharoitlar yaratish kabi muhim masalalar belgilanganligi haqida, ularni kelajakda o'z kasbiga sodiq qolishga, har qanday vaziyatda insonlarga yordam berishga tayyorliklarining bir ramzi ekanligini ta'kidladi. Mamlakatimizda bo'lajak shifokorlar buyuk bobokalonimiz, tibbiyot ilmi allomasi Abu Ali ibn Sino nomi bilan qasamyod qildilar. Unda insonlarning davolash vazifasining muqaddasligiga urg'u berilganini, “Butun shifokorlik faoliyatim davomida va insonlar yordamga muhtoj barcha holatlarda bemor hayoti uchun kurashaman”, - degan so'zlardan ham bilish mumkin. Shu bilan birga, qasamyodda bemor va uning yaqinlari bilan bog'liq tibbiy sirlar saqlanishi, sog'liqqa xavf soluvchi holatlarga jiddiy yondashgan holda ularni bartaraf etish, har qanday holatda ham bemor manfaatlarini ko'zlab ish tutish mas'uliyati yuklanganligi haqida va'da berdilar.

Qasamyod matnidan ma'lumki, uning mazmuni bemorlarga nisbatan bir munosabatni shakllantirishni, ya'ni ularga zarar yetkazmaslikni nazarda tutilishi haqida talabalarga tushuntirildi.

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti dekani G'.R.Raximov so'zga chiqib, talabalarga o'zining samimiy tilaklarini bildirib, ularga "oq yo'l" tiladi. Bo'lg'usi shifokorlar o'z oldilarida turgan mas'uliyatli va sharafli vazifalariga kirishishlaridan oldin ish faoliyatlari davomida vijdonan halol mehnat qilib, xalq salomatligi yo'lida bor kuch-g'ayratini ayamasligi lozimligini aytib o'tdi.

Shundan so'ng, Buxoro innovatsion tibbiyot instituti Yoshlar bilan ishlash va tashkiliy ishlar prorektori T.Odinayev so'zga chiqib, o'qishga qabul qilingan talabalarga "Shifokorlik - sharafli va ayni damda o'ta mas'uliyatli kasb, bu zahmatli faoliyatga umrini baxshida etmoqchi bo'lgan yoshlar kelgusida nafaqat egnidagi oq libosi, balki qalbiga ham gard yuqtirmasliklari lozim", - deb, ta'kidladi. Buxoro innovatsion tibbiyot instituti o'quv jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlarini joriy qilish va iqtidorli talabalarni amaliyotini to'g'ri shakllantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilganligi haqida ta'kidladi

Buxoro innovatsion tibbiyot institutida Davolash yo'nalishi 2d23-guruh talabasi Rajabboyeva Shaxrizodaning onasi so'zga chiqib, talabalarni bemorlarga o'z jon-jigarlari, yaqinlaridek munosabatda bo'lish, innovatsion tibbiyot institutida Davolash ishi uchun esa, avvalo, pokiza niyat, oliyjanob maqsad va qat'iy ahd zarurligini ta'kidlab, barcha talabalarga muvaffaqiyatlar tiladilar.

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti rektori M.M.Amonova, yangi oliy ta'lim muassasasi, mintaqaviy hamkorlik istiqbollarini ekspertlar darajasida batafsil muhokama qilish, meditsina sohasida ko'p tomonlama loyihalar bo'yicha amaliy va ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish uchun imkoniyat yaratishiga ishonch bildirdi.

Shuningdek shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda har tamonlama yetuk, bilimli, iste'dodli yoshlar kelajagimiz ravnaqi ekanligini, tibbiyotimiz ravnaqi bevosita ular bilan bog'liqlikligini alohida ta'kidlab o'tdilar. Barcha talabalarga o'z maqsadlari yo'lida adashmasliklarini va yetuk malakali mutaxassis bo'lishlarini tiladilar.

BIZDA FOTOREPORTAJ. FADIL TRIXOLOGIYA MARKAZI: KECHA VA BUGUN

Fadil trixalogiya markazi - Buxoro innovatsion tibbiyot institutining rivojlanishi uchun xizmat qilayotgan, qolaversa, Buxoro innovatsion tibbiyot texnikumining asosiy amaliyot markazi hisoblangan klinika jamoasi xodimlaridan iborat.

XX asrda jahon tibbiyoti ko'plab muammolarni bartaraf qilishga erishdi, millionlab insonlar hayoti saqlanib qolindi. Bugungi kun tibbiyoti oldida nafaqat inson salomatligini saqlash, balki tashqi estetik ko'rinishning ahamiyati ham ortib boryapti. Zamonaviy bilimlar va texnologiyalar avvalari e’tibordan chetda qolgan, katta ahamiyatga ega bo'lmagan, "ikkilamchi" millionlab insonlar tashqi ko'rinishidagi nuqsonlarni bartaraf qilishda ko'plab muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqda. Jahon tibbiyotida yangi yo'nalishlar jadal rivojlanib bormoqda. Dunyodagi texnik taraqqiyot bizning o'lkalarni ham chetlab o'tgani yo’q. Bilimli va harakatchan yoshlarimiz yaratilgan imkoniyatlardan foydalanib, ko'plab ilg'or texnologiyalarni jalb qilib yurtimizda inson salomatligi va estetik go'zalligini saqlab qolish yo'lida ko'plab ishlar olib borilyapti.

Trixologiya nimani o’rganadi?

Trixologiya - soch va bosh terisi haqidagi fan. U soch morfologiyasi va fiziologiyasini o'rganadi, soch va bosh terisini davolashning nazariy va amaliy usullarini ishlab chiqadi. Trixologiya alohida ilmiy yo'nalish sifatida XX asr o'rtalarida shakllangan.

Fadil mutaxassislari tomonidan o’rganilayotgan va muvaffaqiyatli davolanilayotgan, asosan, keng tarqalgan diffuz, androgen va o’choqli soch to’kilishlaridir. Undan tashqari ko’p turdagi dermatitlar, mikozlar bilan shikoyat qilib kelayotgan bemorlarga ham amaliy yordam ko’rsatilmoqda.

Bu yo’nalishda qilingan miglab amaliyot natijalari FADIL brendini nafaqat O’zbekistonda, balkim O’rta Osiyo davlatlarida ham taniqli qildi. Hozirgi kunda uchbu tibbiyot markazi soch transplantatsiyasi bo’yicha hududda yaqqol peshqadam hisoblanadi. Chet eldan tashrif buyurayotgan bemorlar soni kun sayin ko’paymoqda va bu o’lkada tibbiy turizmni rivojlantirishda kata hissa qo’shmoqda.

Umurov Farrux Faxriddinovich

“Fadil clinic” rahbari.

Kelajak institutlari qanday bo’lishi kerak

* Ko'proq texnologiyaga asoslangan. Institutlar texnologiyalardan foydalanib, o'quvchilarga yanada shaxsiylashtirilgan va interaktiv ta'lim tajribasini taklif qilishlari mumkin. Masalan, o'quvchilar virtual realnost (VR) va дополненная реальность (AR) kabi texnologiyalardan foydalanib, murakkab tushunchalarni o'rganishlari mumkin.

* Ko'proq moslashuvchan. Institutlar o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish uchun yanada moslashuvchan bo'lishi kerak. Bu o'quvchilarga o'zlarining tezligida va o'z vaqtida o'rganishga imkon beradigan onlayn va aralash o'qitish kabi turli xil o'qitish usullarini taklif qilishni anglatishi mumkin.

* Ko'proq global. Institutlar butun dunyo bo'ylab o'quvchilarni jalb qilish uchun yanada global bo'lishi kerak. Bu onlayn kurslar va dasturlarni taklif qilishni, shuningdek, xalqaro hamkorliklarni o'rnatishni anglatishi mumkin.

* Ko'proq innovatsion. Institutlar o'quvchilarga eng yaxshi ta'lim tajribasini taqdim etish uchun yanada innovatsion bo'lishi kerak. Bu yangi o'qitish usullari va dasturlarini ishlab chiqishni, shuningdek, texnologiyalardan foydalanishning yangi usullarini topishni anglatishi mumkin.

* Ko'proq asoslangan. Institutlar o'quvchilarga eng yaxshi ta'lim tajribasini taqdim etish uchun yanada hamkorlikka asoslangan bo'lishi kerak. Bu biznes, sanoat va hukumat kabi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni anglatishi mumkin.

Kelajak institutlarining talabalari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

* Moslashuvchanlik: Kelajak institutlarining talabalari tez o'zgarib turadigan dunyoda o'zgarishga moslashishga qodir bo'lishi kerak. Ular yangi texnologiyalarni va o'qitish usullarini o'rganishga tayyor bo'lishi kerak.

* Tanqidiy fikrlash: Kelajak institutlarining talabalari tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Ular ma'lumotni tahlil qilish va xulosa chiqarishga qodir bo'lishi kerak.

* Ijodiylik: Kelajak institutlarining talabalari ijodiy va yangicha fikrlashga qodir bo'lishi kerak. Ular yangi yechimlar va yondashuvlar bilan kelishga qodir bo'lishi kerak.

* Hamkorlik: Kelajak institutlarining talabalari boshqalar bilan hamkorlik qilishga qodir bo'lishi kerak. Ular jamoada ishlash va umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikda harakat qilishga qodir bo'lishi kerak.

* Kommunikatsiya: Kelajak institutlarining talabalari samarali tarzda muloqot qilishga qodir bo'lishi kerak. Ular o'z fikrlarini aniq va ravshan tarzda ifoda eta olishlari kerak.

* Raqamli savodxonlik: Kelajak institutlarining talabalari raqamli savodxon bo'lishi kerak. Ular texnologiyalarni samarali tarzda ishlata olishlari kerak.

* Global ong: Kelajak institutlarining talabalari global ongga ega bo'lishi kerak. Ular turli madaniyatlar va nuqtai nazarlarni tushunishlari kerak.

* Ijtimoiy mas'uliyat: Kelajak institutlarining talabalari ijtimoiy mas'uliyatga ega bo'lishi kerak. Ular o'z jamoalariga va dunyoga ijobiy ta'sir ko'rsatishga intilishlari kerak.

Global ong - bu dunyoni o'zaro bog'liq va o'zaro bog'liq tizim sifatida tushunishdir. Bu boshqa mamlakatlar va madaniyatlar haqida xabardorlik va ular bilan aloqada bo'lish istagini anglatadi. Global ongga ega bo'lgan odamlar odatda quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

* Ular boshqa mamlakatlar va madaniyatlar haqida bilimga ega.
* Ular boshqa mamlakatlar va madaniyatlar bilan aloqada bo'lishga ochiq.
* Ular boshqa mamlakatlar va madaniyatlarning qadriyatlarini hurmat qiladilar.
* Ular boshqa mamlakatlar va madaniyatlar bilan hamkorlik qilishga tayyor.
* Ular global muammolarni hal qilish uchun birgalikda ishlashga intilishadi.

Global ong bugungi globalizatsiyalashgan dunyoda tobora muhimroq bo'lib bormoqda. Dunyo tobora o'zaro bog'lanib borayotganligi sababli, boshqa mamlakatlar va madaniyatlar haqida xabardor bo'lish va ular bilan aloqada bo'lish qobiliyati tobora muhimroq bo'lib bormoqda. Global ongga ega bo'lgan odamlar global muammolarni hal qilish va barqaror va tinch dunyoni yaratish uchun yaxshiroq jihozlangan.

Kelajakda institutlar quyidagi yo'nalishlarda yanada kengroq tarqalishi mumkin:

* Onlayn ta'lim: Onlayn ta'lim tobora ommalashib bormoqda va kelajakda institutlar yanada ko'proq onlayn kurslar va dasturlarni taklif qilishlari mumkin. Bu o'quvchilarga o'zlarining tezligida va o'z vaqtida o'rganishga imkon beradi.
* Moslashuvchan ta'lim: Institutlar o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashish uchun yanada moslashuvchan bo'lishi kerak. Bu o'quvchilarga turli xil o'qitish usullarini, masalan, onlayn, aralash va shaxsiy o'qitishni taklif qilishni anglatishi mumkin.
* Global ta'lim: Institutlar butun dunyo bo'ylab o'quvchilarni jalb qilish uchun yanada global bo'lishi kerak. Bu onlayn kurslar va dasturlarni taklif qilishni, shuningdek, xalqaro hamkorliklarni o'rnatishni anglatishi mumkin.
* Innovatsion ta'lim: Institutlar o'quvchilarga eng yaxshi ta'lim tajribasini taqdim etish uchun yanada innovatsion bo'lishi kerak. Bu yangi o'qitish usullari va dasturlarini ishlab chiqishni, shuningdek, texnologiyalardan foydalanishning yangi usullarini topishni anglatishi mumkin.
* Hamkorlikchan ta'lim: Institutlar o'quvchilarga eng yaxshi ta'lim tajribasini taqdim etish uchun yanada hamkorlikchan bo'lishi kerak. Bu biznes, sanoat va hukumat kabi boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni anglatishi mumkin.

Hozirgi kun talabalariga quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

* O'z qiziqishlarini va kuchli tomonlarinitopish. O'z qiziqishlarini va kuchli tomonlarini biladigan talabalar o'zlariga mos keladigan martaba yo'lini

tanlash va unda muvaffaqiyat qozonish ehtimoli ko'proq.

* O'z maqsadlarini belgilang va ularga erishish uchun reja tuzing. O'z maqsadlarini biladigan va ularga erishish uchun reja tuzadigan talabalar muvaffaqiyatga erishish ehtimoli ko'proq.

* Qat'iyatli va tirishqoq bo'ling. Muvaffaqiyatga erishish uchun qat'iyatlilik va tirishqoqlik juda muhimdir. Talabalar qiyinchiliklarga duch kelganlarida ham o'z maqsadlariga erishish uchun harakat qilishlari kerak.

* Yordam so'rashdan qo'rqmang. Talabalar o'z maqsadlariga erishish uchun yordam so'rashdan qo'rqmasliklari kerak. O'qituvchilar, maslahatchilar va ota-onalar talabalarga kerakli yordam va qo'llab-quvvatlashni berishlari mumkin.

* O'zingizga ishoning. Talabalar o'zlariga ishonishlari va o'z qobiliyatlariga ishonishlari kerak. O'ziga ishonadigan talabalar muvaffaqiyatga erishish ehtimoli ko'proq.

Bu tavsiyalarga amal qiladigan talabalar o'z maqsadlariga erishish va muvaffaqiyatli bo'lish ehtimoli ko'proq.

Umurov Feruz Faxriddinovich

Buxoro Innovatsion Tibbiyot instituti ta'sischisi

NEGA HAYOTDA HAMMA HAM A`LO NATIJAGA ERISHA OLMAYDI!

Bugungi kunda yurtimizda yoshlarni intellektual salohiyatini oshirish, ularni kitobga jalb etish, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishlari uchun zamin yaratish, ulardagi iste`dodni kashf etish, jamiyatda o'sib kelayotgan yosh avlodni salohiyatli kadrlar bo'lib yetishishiga ko'maklashish, eng asosiy vazifamiz va maqsadimiz desak, mubolag'a bo`lmaydi. Aynan shuning uchun ham bugungi kunda yoshlarimiz barcha sohada birinchilardan bo'lib jahonda, nafaqat sport, balki, ilm-ma'rifat sohasida ham yetakchi bo`lib kelmoqda. Ammo bir savol tug'iladi: "Nega hamma ham a'lo natijalarga erisha olmaydi".

Albatta har bir inson bu hayotda nimagadir intilib, nimanidir kutib yashaydi. Ularning qamrovi turlicha, insonlarning dunyoqarashi, aqliy va jismoniy imkoniyatlaridan kelib chiqib, har xil xarakterga ega bo`ladi.

O'z o'rnida insoniylik istaklarini 2 turga bo'lish mumkin: bularning birinchisi - Orzu, ikkinchisi - Maqsad. Orzu qilinadi, O'ylaniladi, fantaziyalar bilan boyitiladi. Ammo uni amalga oshirishga qaratilgan harakatlar passiv ko'rinishga ega bo`ladi. Orzular chegara bilmaydi, insondan shunga yarasha aqliy va jismoniy qobiliyatni, moddiy asos talab qilmaydi. Orzu insonlarni hayotga bog`lab turuvchi, mavjud muammolardan kelib chiqib shakllanuvchi farazdir.

Bir so'z bilan aytganda, orzu ko`p hollarda armon bilan tugovchi termin.

Maqsad esa butunlay boshqa xarakterga ega bo'lgan insoniylik xislatidir. Bizda mavjud biror orzuga erishish uchun zarur choralarni ko'rish, harakatlarimizni shu orzu yo'lida jamlash orqali biz orzu degan tushunchani maqsadimizga aylantiramiz. Albatta maqsadlar uning qamrov darajasidan kelib chiqib oson, ya`ni erishilishi nisbatan qiyinchiliklarsiz, barcha zaruriy salohiyat va moddiy asos yetarli bo`lgan, hamda, murakkab, ayni paytda mavjud salohiyat va moddiy asosni ko'paytirishni talab qiluvchi turlarga bo`linadi.

Maqsadlar shu toifalarga ko'ra turlicha vaqt talab qiladi. Albatta, to'g'ri orzuni tanlay olgan, uni erishilajak maqsadga aylantira olgan inson har qanday holatlarda a`lo natijalarga erisha oladi. Inson maqsadni tanlashdan oldin mavjud barcha imkoniyatlarni hisobga olishi lozim, chunki erishilgan har qanday kichik maqsad insonni ruhan toblaydi. Aksincha, mavjud imkoniyatlar yetarli bo'lmay turib maqsad qo`yish - o'z-o'zidan uni ushalmas orzuga aylantiradi va bu insonda psixologik tushkunlikning kelib chiqishiga olib keladi. Xulosa qilib shuni aytish lozimki, aniq, to'g'ri, manfaatli maqsadni tanlay olib, uni ustida yetarli mehnat qilgan har qanday inson, o'zi istagan va istalgan a'lo natijaga erisha oladi.

Djabborova Mexriniso
Buxoro Innovatsion Tibbiyot Instituti

Buxoro Innovatsion tibbiyot institutining matbuot xizmati BITI gazetaning 3-soni uchun maqolalar qabul qilishni boshladi.

Mini futbol bo'yicha rektor kubogi

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida 28-29-sentabr kuni Buxoro innovatsion tibbiyot institutida talabalar o'rtasida sportning MINI FUTBOL turi bo'yicha "REKTOR KUBOGI" musobaqasi o`tkazildi.

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti sport va tashkiliy ishlar bo'yicha bo'lim boshlig'i N.N.Davronov ham sportning kelajakni va sog`lom turmush tarzini rivojlantirishdagi o`rni juda katta ekanligini aytib o`tdi. Bunday sport tadbirlari va mashg`ulotlari tez-tez tashkillashtirib turilishini ta'kidlab o`tdi. Musobaqada 1-kursdan 4-kursgacha bo'lgan institut yigitlari ishtirok etishdi. Jumladan, Qarshiyev Asliddin, Temirov Botir, Botirov Lazizlar faol ishtirok etdilar va munosib o'rinlarni egalladilar.

Davronov Nodir Ne'matovich
Buxoro innovatsion tibbiyot instituti sport targ'ibotchisi

"MEN DONORMAN" AKSIYASI

Buxoro innovatsion tibbiyot institutida 15-sentab kuni "Men donorman" shiori ostida beg'araz donorlik aksiyasi o'tkazildi. Unda ko'ngilli talabalar ixtiyoriy ravishda, sanitariya-gigiyena talablariga to'liq rioya qilgan holda qon topshirdi. Inson hayotini asrab qolish ko'pincha qon quyish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, bemorga faqatgina o'zining guruhiga mos qon qo'yilishi talab etiladi. Donorlik – insoniy fazilatlarning eng yorqin namunasi bo'lib, beg'araz, ko'ngilli yordam esa qonga ehtiyoji bor bemorlar uchun bebaho ko'makdir. Qon donorligi jamiyatda insonparvarlik, vatanparvarlik, sezgirlik kabi fazilatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Qon donorligining inson organizmiga ta'siri va foydali xususiyatlari haqida aksiyaga qatnashgan ko'ngilli talabalar malakali mutaxassislardan ma'lumot oldi.

Buxoro Innovatsion tibbiyot institutining matbuot xizmati hamkorligida tayyorlandi

Voleybol bo'yicha rektor kubogi

" Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida 5-6-oktabr kuni Buxoro innovatsion tibbiyot institutida talabalar o'rtasida sportning VOLLEYBOL turi bo'yicha "REKTOR KUBOGI" musobaqasi o`tkazildi.

Buxoro innovatsion tibiyot institutning rektori M.M.Amonova so'zga chiqib, "Besh tashabbus olimpiadasi" sport tadbirlari hozirgi kunda sport bilan shug'ullanish uchun har bir yosh uchun juda zarur ekanligi, chunki sport bilan shug'ullanish ham jismonan, ham aqlan rivojlanishga yordam berishini, muntazam sport bilan shug`ullangan inson atrofdagilarga nisbatan kuchli va teran fikrlovchi shaxs bo'lib voyaga yetishi haqida fikr bildirdi. O'z ma'ruzasida sportning bugungi kunda ijtimoiy hayotda qanchalik o'rni katta ekanligini, sportni rivojlantirish uchun yurtimizda juda ko'p islohotlar o`tkazilayotganini aytib o`tdi. Shu o'rinda beshta muhim tashabbusning birinchi bandi ham aynan sportni rivojlantirishga qaratilganligini va misollar orqali o'z fikrlarini bildirdi.

Musobaqada 1-kursdan 4-kursgacha bo'lgan institut yigit-qizlari ishtirok etishdi. Polvonov Abdullo, Muxammadiyev Bexruz, Ibodullayev Zavqiddinlar faol ishtirok etdilar va munosib o'rinlarni egalladilar.

Yakuniy natijalarga ko'ra, qizlar o'rtasida institutning "Davolash ishi" yo'nalishi ikkinchi bosqich talabalari:

1.Kazakbayeva Asal (12d22)
2.Avezova Madina (4d22)
3. Amirova Fazilat (5d22)
4. Asqaraliyeva Diyora (3d22) 5.Allayorova Dinara (8d22)
6.Qulmuratova Oydin(9d22)lar jamoasiga musobaqakubogini qo'lga kiritish nasib etdi.

O'g'il bolalar o'rtasida esa "Stomotologiya" yo'nalishining uchinchi bosqich talabalari

1.Muxammadiyev Bexruz (11s21)
2.Jamolov Javohir (9s21)
3.Haydarov Shaxriyor (12s21)
4.To'lqinov Abbos (10s21)
5.Xurramov Murtoz (9s21)
6.Bobojonov Siroj (10s21)
7. Xolmurodov Qodirjon (9s21)
8. Polvonov Abdullo(9s21)lar jamoasi barcha jamoalardan ustun kelib, kubokni boshi uzra baland ko'tarishdi.

Shaxmat-shashka bo'yicha rektor kubogi

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida Buxoro innovatsion tibbiyot institutida talabalar o'rtasida sportning "Shaxmat- shashka" turi bo'yicha "REKTOR KUBOGI" musobaqasi tashkillashtirildi.

Buxoro innovatsion tibiyot institutning Yoshlar bilan ishlash va tashkiliy ishlar bo'yicha prorektor T.T.Odinayev so'zga chiqdi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy, ma'naviy- ma'rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha beshta muhim tashabbus ilgari surilgan edi. Shundan ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan edi. "Hech narsa mamlakatni sportchalik dunyoga tez tanita olmaydi". Bilamizki, hozirgi kunda bizning mamlakatimizda ham sportning juda ko'p turlari rivojlanib, jahon arenalarida sportchilarimiz yuqori o'rinlarni egallab, yurtimiz dovrug'ini butun dunyoga tanitmoqda. Shu tufayli, yurtimizda sportning rivoji va uning porloq kelajagi uchun keng ko'lamdagi ishlar, shart-sharoitlar yaratilmoqda. Sportning bugungi kunda ijtimoiy hayotda qanchalik o'rni katta ekanligini ko'rish mumkin. Sportni rivojlantirish uchun yurtimizda juda ko'p islohotlar o`tkazilayotgani, shu o'rinda beshta muhim tashabbusning bir bandi ham aynan sportni rivojlantirishga qaratilganligini misollar orqali o'z fikrlarini bildirdi.

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti sport va tashkiliy ishlar bo'yicha bo'lim boshlig'i N.N.Davronov ham sportning kelajakni va sog'lom turmush tarzini rivojlantirishdagi o'rni juda katta ekanligini aytib o'tdi. Bunday sport tadbirlari va mashg'ulotlari tez-tez tashkillashtirib turilishini ta'kidlab o'tdi. Musobaqada

1-kursdan 4-kursgacha bo'lgan Buxoro innovatsion tibbiyot institut talabalari ishtirok etishdi. 10d23-guruh Alijonov Jasur musobaqada faol ishtirok etib, munosib birinchi o'rinni egalladi.

Yangi O'zbekiston yoshlari - kelajagimiz poydevori.

Buyuk ajdodlarimiz ma'naviy-ruhiy kamolotga erishishni, doimo ogoh va hushyor yashashni, Vatan, el-yurt sha'ni, tinchligi uchun hatto jon fido etishni hayotining mazmuni deb bilgan. Yoshlarni ham ana shu ezgu amallar ruhida tarbiyalashga intilgan. Yoshlar kelajagi hamisha O'zbekiston davlat siyosatining markazida bo'lgan. Bugun ham yurtimizda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish, yoshlarning kamoloti va tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiluvchi shart-sharoit yaratish uchun barcha sohada keng ko'lamli islohotlar jadallik bilan olib borilmoqda.

Prezidentimizning tashabbusi va qo'llab-quvvatlashi esa ularga bu maqsadlarni amalga oshirishda ko'mak beradi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning: “Biz o’z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim”, - so'zlari yoshlar uchun katta marralar sari yo'l ochdi.

Yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq Uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida ularning o'rni beqiyos bo'lgan. Yoshlar siyosati bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil eta turib davlat va yoshlarning uzviy bog'liqligini ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, Buxoro innovatsion tibbiyot institutida ta'lim-tarbiya jarayonida talaba yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyatlar, sharoitlar, ularga berilayotgan e'tibor natijasida, talabalarimiz fan va sport sohasida bir qator yutuqlarga erishib kelmoqda. Hamda Respublikamiz hayotida faollik bilan ishtirok etib, ko'plab yutuqlarga erishayotgan yoshlardandir. Ishonch bilan ayta olamizki, talaba-yoshlarning ko'zlaridagi olov, yuzlaridagi tabassum, qalbidagi g'ayrat va shijoat ertangi kuniga ishonchi borligini ko'rsatib turibdi. O'z kelajagi uchun befarq bo'lmagan ilmli, salohiyatli, o'zining ustida doimiy ishlaydigan malakali kadrlar doimo vatanimiz g'ururi va kelajagimizning buyuk davomchilaridir.

Odinayev Tolibjon Toyirovich

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti yoshlar va tashkiliy ishlar bo'yicha prorektor

Sizga ta'zim, sizga ehtirom aziz ustozlar

Buxoro innovatsion tibbiyot institutida 1-oktyabr "Ustoz va murabbiylar kuni"ga bag'ishlab tadbir bo'lib o'tdi. Ma'naviy va psixologik ko'maklashish markazi bo'lim boshlig'i G.R.Jumayeva so'zga chiqib, necha yillardan buyon 1-oktyabr « Ustoz va murabbiylar kuni» bayram sifatida nishonlab kelinmoqda, barcha ustoz va murabbiylarni tabriklab, Vatanimiz ravnaqi yo'lida kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarimizni ilmli, barkamol inson qilib tarbiyalashdek yuksak, mas'uliyatli va mashaqqatli kasbga umr yo'llarini baxshida etayotgan oliyjanob, ziyoli insonlarni tabrikladi. Davlatimiz rahbari tomonidan ta'lim tizimida ulkan islohotlar amalga oshirib borilayotganligi, ushbu kasb egalariga yuksak ehtirom ko'rsatilayotganligi hamda ularning ish faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlab, munosib ish sharoitlari yaratib berilayotganini ta'kidlab o'tdi. Jamiyatning buguni va ertasi, uning madaniy, ma'naviy-ma'rifiy salohiyati ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanishi, ta'lim tizimidagi islohotlarning muvaffaqqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi va murabbiylarning fidokorona mehnatlariga bog'liq ekanligini ta'kidladi.

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti dekani G'.Raximov so'zga chiqib, 1-oktyabr "O'qituvchi va murabbiylar kuni" umumxalq bayramini respublikaning barcha qatlamlari ishtirokida keng miqyosda nishonlanishi va ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, ilg'or

pedagogik tajribalarni yoritish, bayram arafasida o'qituvchilar va murabbiylarni ulug'lovchi, o'quv dargohning ulug' dargoh ekanligini targ'ib qiluvchi, o'quvchilarni bilim va hunar sirlarini puxta egallashga da'vat etuvchi el ardog'idagi hurmatli insonlar ekanligini gapirib o'tdi va tadbir ishtirokchilarini tabrikladi.

Jumayeva Gulshrin Ro'ziyevna

Buxoro innovatsion tibbiyot instituti
Ma'naviy va psixologik ko'maklashish markazi
bo'lim boshlig'i

Talaba qizlarni milliy kiyintirishga ota-onalarni tayyorlash

Talaba qizlarni milliy tarbiyalashda milliy kiyinish ko'nikma, odatlarini tarkib toptirish o'ta dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shuning uchun ba'zi talaba qizlarning kiyinish borasida yevro'pacha kiyinishga taqlidning ommaviylashib borishi bag'oyat achinarlidir. Buning oqibatida hozirda ba'zi talaba qizlarda internet tarmoqlari orqali ko'rayotgan materiallar, ba'zi katta opalarining "namunasi" kiyinish sohasidagi "moda"larga taqlidi - bu haqda ular ongining noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Misol uchun ba'zi o'zbek talaba qizlarining tanasiga yopishgan tor shim, tanasini ko'z-ko'z qilib behayolarcha ko'rsatadigan yupqa shiypon matolardan tor tikilgan kalta ko'ylak, yubka, kofta, palto kabi yevro'pacha kiyinadiganlar soni yirik shahar muhitida kun sayin ortib borishi milliy madaniyatning, ma'naviyatning, qolaversa, millat tarbiyasining pasayishiga, obro'sizlanishiga, qadrsizlanishiga olib kelmoqda.

Shuningdek, talaba qizlarning milliy kiyinishi- O'zbekiston xalqining tarixiy-madaniy, ma'naviy merosining bir ajralmas tarkibini tashkil etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi 77-78-moddalarida huquqiy asoslab berilgan. Shunday ekan, har birimiz, ayniqsa, talaba qizlar qomusimizda belgilab berilgan o'z fuqarolik ijtimoiy burchlarini ado etishga mas'uldirlar.

Mazkur dolzarb ijtimoiy vazifani amaliy hal qilishda birinchi navbatda ota-onalar, professor-o'qituvchilar, guruh murabbiylari va keng jamoatchilikning ko'nikayotganligi, befarqligi, ijtimoiy mas'uliyatsizligi talaba qizlarning milliy ruhda tarbiyalanishiga yomon ta'sir ko'rsatmoqda. Buning asosiy sababi, ba'zi ota-onalarning talaba qizlar milliy kiyinishi bo'yicha pedagogik ma'lumotlari, tajribalari hozirgi hayot talablari darajasida emasligini ko'rsatadi. Milliy kiyinish bo'yicha talaba qizlarga moddiy-ma'naviy jihatdan kuchli ta'sir ko'rsatadigan ota-onalarni shu sohaga ilmiy, amaliy tayyorlash talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi oila kodeksi 73-moddasida "Ota-onalar o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardirlar. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart", - deb belgilangan talabi o'rinlidir.

Bu borada ota-onalar milliylik asosiy ustuvor yo'naltiruvchi tarbiyaviy ta'sir ko'rsatganligini tushunishlari, anglashlari shart. Shuning uchun ota-onalar talaba qizlarni milliy tarbiyalashda millat manfaatini birinchi o'ringa qo'yishlari shart. Busiz haqiqiy milliy tarbiyani amalga oshirib bo'lmaydi. Tarbiyada milliylikni hisobga olmaslik talaba qizlarni milliy tarbiyalamaslikka olib keladi. Shuningdek, ota-onalarni talaba qizlarni milliy kiyintirishga amaliy tayyorlashda milliy istiqlol g'oyasi, milliy ong, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur va millatidan faxrlanish kabi milliy tuyg'ularni singdirishga alohida e'tiborni qaratish zarur.

“Orol mening tasavvurimda” rasmlar tanlovi

Buxoro Innovatsion Tibbiyot Institutida 28-sentabr kuni “Orol mening tasavvurimda nomli tadbir bo’lib o’tdi. Tadbirda ma’naviy psixologik ko’maklashish bo’lim boshlig’i G.Jumayeva so’zga chiqib, so‘ngi yillarda Orol dengizi o‘rnida paydo bo‘lgan Orolqum mayda tuz va tuproq zarrachalari bilan qoplanganligi, shamol esganida tuz va tuproq zarrachalaridan iborat chang havoga ko‘tarilib, uzoq masofalarga tarqalishi, suv zahiralarining kamayishi va sho‘rlanishi natijasida yaylovlarda chorva uchun oziq bo‘ladigan o‘simliklar turi va sifati kamayib, o‘tloqlar maydoni deyarlik uch martaga qisqargani haqida gapirib, Amudaryo va Sirdaryo suvining kamayishi, suv toshqinlarining bo‘lmasligi, daryolarning suv bosadigan qirg‘oqlarida yastanib yotadigan to‘qaylardagi xilma-xil o‘simliklarning qurib, yo‘q bo‘lib ketishiga olib keldi. Ularning o‘rnini qurg‘oqchilikka chidamli yulg‘un, shuvoq kabi cho‘l o‘simliklari egallamoqda.

O’zbekiston badiiy akademiyasi a’zosi Fadeyev Sergey Pyotrovich talabalarning ijodiy ishlarini ko’rib, ularga xolisona baho berdi.

Tanlovda: 1-o’rinni 1d23 guruh talabasi Raupova Shahnoza, 2-o’rinni 12d23 guruh talabasi Mamatqulova Ma'rifat, 3-o’rinni 2s23 guruh talabasi Xudoyganov Bahron egalladi.

G’oliblar institut rahbariyati tomonidan sovg’alar bilan taqdirlandilar.

Chunki ota-onalarning o'zlarida milliy g'oya, milliy ong shakllanmasa, talaba qizlarni yevro'pacha kiyinishga qiziqishi shuncha ortaveradi. Yevropacha kiyinishga chek qo'yish uchun, avvalo, ota-onalarning o'zlariga yevropacha kiyinishning moddiy va manaviy zararini tushuntirish, anglatish zarur. Avvalo, ota-onalar milliy kiyinmasligi o'z millatining shu sohada tashqi qiyofasini tanazzulga olib kelishini anglashi darkor. Millat a'zosi millat tashqi qiyofasining kiyinishda yo'qolishi shu millat tanazzulining ma'naviy asosligini bilishi muqarrardir.

Milliy kiyinish millatning ko'rki, ko'zgusi, g'ururi, iftixori va or-nomusini ifodalovchi, ko'rsatuvchi tarbiya vositaligiga ishonmog'i va boshqalarni shunga ishontira olmog'i darkor. Ota-onalarning yuqoridagi ta'kidlangan bilimlari talaba qizlarni milliy kiyintirishdagi pedagogik ma'lumotlarini takomillashtirib, ularni pedagogik tayyorlashga amaliy yordam beradi degan fikrdamiz. Shunday qilib, talaba qizlarni milliy kiyintirishga ota-onalarni pedagogik tayyorlash malakali yetuk mutaxassislar tayyorlashning tarkibiy qismini tashkil etmog'i zarur. Mavzuning o'ta dolzarbligini hisobga olib, oliy ta'lim oliygohlarida fakultetlar ota-onalar majlislari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, tarbiyaviy soatlarida mazkur mavzuni muhokama qilib hayotga joriy etilsa, talaba qizlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi yaxshilangan bo'lardi.

Razzoqova Shaxnoza Jo'rayevna
Buxoro innovatsion tibbiyot instituti
Xotin-qizlar qo'mitasi raisi.

Bemorlarda buyrak-tosh kasalliklarining paydo bo`lish sabablari va ularni davolashning zamonaviy- innovatsion metodlari.

Bugun XXI asr Kompyuter texnologiyalari asri hisoblanib, jamiki sohalar va shu jumladan tibbiyot sohasida yangidan-yangi zamonaviy innovatsiyalar kirib kelmoqda. Tibbiyot xodimi sifatida shuni aytishim mumkinki, bugun tibbiyotning barcha sohalari tubdan takomillashmoqda; buni ayniqsa, urologiya, endokrinologiya sohalarida buni ko`rish mumkin. Buning isboti o`laroq, Jahon Sog`liqni Saqlash Tahkilotining 2022-yildagi bergan statistikasiga ko`ra buyrak-tosh kasalliklari bilan og`rigan bemorlarning soni yangicha davolash choralari sababli 35%ga kamaygan. Shu jumladan, ayirish organlarida yuzaga keluvchi saraton kasalliklari ham 28% ga kamayib,o`lim ko`rsatkichi 19%ga tushgan.Homilador ayollarda buyrak-tosh kasalliklari bilan og`rish xususiyati 21%, ularda uchraydigan urologik kasalliklarda innovatsion davolash usullari orqali 18%, bolalarda 31%, qariyalarda esa 17% kamaygan. Albatta bu quvonarli holat. Ko`plab rivojlangan mamlakatlarda, xususan, Amerika, Germaniya, Fransiya, Hindiston, Isroil, Buyuk Britaniya kabi mamalakatlarda juda ko`plab urologik kasalliklarni yangicha innovatsion metodlarda davolashning tadbiqiy usullari ishlab chiqilmoqda va tadqiqot, tajribalar o`tkazilib amaliyotga tadbiq etilmoqda. Bu holat nafaqat chet elda, balkim bizning yurtimizda ham olib borilmoqda. So`nggi 5 yil ichida o`zbekistonlik urolog-androlog lar olib borgan tadqiqotlari ham tahsinga sazovordir. Yurtimizning iqlimi, sharoiti va havosidan kelib chiqib ko`plab buyrak kasalliklari mavjud.

Surunkali glomerulonefrit (SGN) - birlamchi glomerulopatiyalar guruhi bo'lib, persistirlovchi, avj olib boruvchi immun yallig'lanish bilan nefronlarning sklerotik va destruktiv zararlanishi, keyinchalik tubulointerstisial skleroz va qisman surunkali buyrak yetishmovchiligi rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Etiologiyasi. SGN birlamchi, irsiy moyilligi bo'lgan surunkali kasallik hisoblanadi. Trigger omillari quyidagilardan iborat:

1) norasional dori terapiyasi (uzoq vaqt nefrotik dori vositalarini qabul qilish, poliprogmaziya);

2) surunkali infeksiya o'choqlari;

3) persistirlovchi virusli infeksiyalar;

4) haddan tashqari antigenli zo'riqish (qo'shilgan va residivlovchi infeksiyalar, immunoglobulinlarni qayta yuborish, immunizasiyani norasional o'tkazish). Patogenezi. Kasallikning asosida immuno patologik jarayon yotadi:

1) nefron membranalarining nostabilligi natijasida buyrak antigenlarining qon oqimiga o'tishi, gistogematologik barerni turli xil omillar natijasida zararlanishi, buyrak displaziyasida kuzatiladi. Buning natijasida kanalchalar bazal membranasi va koptokchalarni zararlaydigan autoantitanachalar, sito'toksik limfositlar, immun komplekslar hosil bo'ladi, kompliment tizimi aktivlashadi;

2) immunologik reaktivlikning buzilishi natijasida, buyrakning zararlanmagan to'qimalarida autoimmun jarayonga olib keladi (tizimli kasalliklarda).

Tasnifi. Xalqaro amaliyotda SGNning morfologik tasnifidan foydalaniladi. quyidagi morfologik shakllari ajratiladi:

1)membranozli; 2)membranoz-proliferativ GN; 3)fokal-segmentar glomeruloskleroz; 4)mezangioproliferativ (IgA-nefropatiyu); 5)fibroplastik (yuqorida ko'rsatilgan shakllarning boshlanishi.

Kasallikning paydo bo'lishi va rivojlanishining oldini olish uchun, avvalo, organizmdagi modda almashinuvini izga solish lozim. Bunga sog'lom turmush tarziga rioya etish va qat'iy parhez orqali erishiladi. Ko'p miqdorda shovul va siydik paydo qiluvchi mahsulotlar iste'mol qilish taqiqlanadi. Osh tuzi, jigar, buyrak, til, qazi va dudlangan go'sht, margarin, bedana tuxumi, brinza, pishloq, shokolad, qo'ziqorin, anjir, mosh, no'xat, loviya, achchiq qora choy, qahva hamda kakao iste'mol qilmaslik talab etiladi.



TURDIYEV DOSTON SHAVKATOVICH
Buxoro innovatsion tibbiyot instituti assistenti

Buxoro Innovatsion tibbiyot institutining matbuot xizmati BITI gazetaning 3-soni uchun maqolalar qabul qilishni boshladi.

TABIB

Qadim o‘tgan zomonda
Bir tabib bo‘lgan ekan,
Bemorni ko‘rib tunda
Uyiga qaytar ekan.

O‘sha tunda bir boyni
Kimlardir o‘ldiribdi,
Navkarlar yugurishib
Qotilni qidiribdi.

Navkvarlar gumon qilib,
Tabibni ushlashibdi.
Qotil deb gumon qilib
Zindonga qamashibdi.

Qozilar so‘roq qilib
Bo‘yniga ilishibdi.
Dorga osilsin deya
Xukmni o‘qishibdi.

Shox so‘rabdi tabibdan
- Nega boyni o‘ldirding?
Sahiy boyni o‘ldirib,
Katta ziyon keltirding!

Tabib debdi shaxan shox
Men boyni o‘ldirmadim.
Qozining qarorida
Adolatni ko‘rmadim!

Tekshiribdi shaxan shox
Xaqiqatni bilibdi.
Shoxning g‘azabi kelib
Juda qahrlanibdi.

Chaqiribdi qozini
Qirqta darra uribdi.
Navkar boshliqlarini
To‘plab zindonband qipti.

Vazirlarin kechirmay
Darhol ishdan olibdi.
Jahlidan tushmayin shox
Raiyyatni to‘plabdi.

Eshiting shox so‘zimni
Hukmni bajo qiling!
Barcha, barcha tabibni
Saroyga to‘plab keling.

Har tabibga bittadan
Saman otdan berilsin,
Saman otning boshida
Qizil qashqasi bo‘lsin!

Tabiblarning bariga
Bittadan oq to‘n bering.
Har oyda tabiblarning
Holidan xabar oling!

Kunduzi tabiblarni
Saman otdan tanisin.
Kechasi yolg‘iz yursa
Oppoq to‘nidan bilsin.

Kechalari ishlagan
Tabibni habib biling!
Har kimdan tabib chiqmas
Tabibni hurmat qiling!

Tabibning oq xalati
O‘sha zamondan qolgan.
Xozirgi mashinasi
Oldinlar saman bo‘lgan.

Saman ot bu mashina
Qizil yarim oyi bor.
Oq to‘n esa oq xalat
Qalblariday beg‘ubor.

Qizil qashqa samanni
Avlodlar ham minishar.
Tundagi oppoq to‘nni
Avlodlar ham kiyishar.

O‘qib shu misralarni
Bizni eslab qo‘yishar!

Raximov Giyas Rahmonovich
“Davolash ishi va stomatologiya“ fakulteti dekani

KIBERSPORT REKTOR KUBOGI

Musobaqa kibersport maydonida bir necha bosqichda o‘tkazildi. Buxoro innovatsion tibbiyot institutining birinchi bosqichdagi talabalari kuch sinashdilar. Bu galgi musobaqalarda 95dan ortiq ishtirokchi qatnashdi. Qayd etilishicha, ushbu sport so‘nggi yillarda ommalashib bormoqda. Agar ilgari kompyuter o'yinlariga bo’lgan munosabat noaniq va hattoki, biroz salbiy bo’lgan bo’lsa, hozirda kompyuter o'yinlari dunyosi va unga bo'lgan munosabat sezilarli o'zgardi. Kibersport to’laqonli sport sohasi sifatida jadal rivojlanmoqda.

O‘zbekiston ham yoshlar manfaatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishga qaror qildi.

“Yoshlarning bo‘sh vaqti yetakchining ish vaqti” tamoyili asosida yoshlar yetakchilari tomonidan yiliga ikki marta “Besh tashabbus olimpiadasi”ni tizimli ravishda o‘tkazish rejalashtirilgan.

"Tibbiyot sirlari" gazetasi №2 (23-oktabr 2023)

Bizning manzil:*Buxoro shahri Namozgoh ko'chasi 112 ,*

Mo'ljal:*"Buxoro innovatsion tibbiyot instituti".*

Bosh muharrir:*Mardonov Sanjar Yoqub o'g'li*

Gazeta uchun maqolalarni saralovchi va nashrga tayyorlovchi: *Djabbarova Mexriniso Samadovna*

Telegram:*@bitiinfo*

Instagram: *biti_uz*

Telefon:*88 303-50-50*

Gazetamizning keyingi sonlari uchunmaqolalar qabul qilamiz.